

---

## Qo'shtepa: DEZINFEKTSIYA ISHLARI DAVOM ETMOQDA

Qo'shtepa tumanida koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar doirasida dezinfeksiya ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



---

Tuman sanitariya epidemiologik osoyishtalik markazi hamda mutasaddi tashkilotlar tomonidan tuman hududiga kiradigan postlarda, markaziy ko'chalarda, ko'p qavatli uylarda, dehqon bozori va tashkilotlarda, jamoat joylarida muntazam ravishda dezinfeksiya ishlari olib borilmoqda.



---

Shu bilan birgalikda tumandagi barcha mahallalarda tozalik va ozodalikka alohida e'tibor qaratilib, muntazam ravishda dezinfeksiya ishlari amalga oshirilmoqda.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2020-07-16 16:04:48